



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) Q A R O R I**

2024 yil 10-dekabr

262/09-3qr-sonli

Toshkent sh.

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi
tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish hamda ichki korporativ
hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-son qarori va “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda - jamiyat) kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 8-noyabrdagi 12-2024-son bayoni hamda jamiyatning 2024-yil 15-noyabrdagi 01-14-1418-son murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 76¹-moddasiga muvofiq aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga **kamida bir nafar mustaqil a‘zo kiritilishi** kerakligi;

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga muvofiq, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish choralarini ko‘rishi;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan 2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasiga asosan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a‘zolari jalb etish bunda davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibidagi mustaqil a‘zolar sonini 2025-yilga qadar **30 foizgacha yetkazish** belgilanganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-sentabrdagi 02/1-1934-son ko‘rsatmasi bilan jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga xorijiy tajribaga ega mustaqil a‘zolar jalb etiladigan korxonalar ro‘yxatiga kiritilganligi;

Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga xorijiy tajribaga ega mustaqil a'zolari jalb etish bo'yicha **"Strikitsa Consulting" Ltd.** konsalting kompaniyasi (Buyuk Britaniya) bilan birgalikda nomzodlar tanlab olinganligi;

Davaktiv agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/09-3-21-17/1307-son xati bilan xalqaro tajribaga ega bo'lgan Jon Nasirov (Chexiya/Liberec) va Robert Manson (AQSH/Qozog'iston) nomzodlarini jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zo sifatida saylash bo'yicha ko'rsatma yuborilganligi;

Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklari va davlat unitar korxonalari kuzatuv kengashi tarkibidagi davlat ulushi bo'yicha saylangan (tayinlangan) shaxslarni rag'batlantirish tartibi o'zgarganligi munosabati bilan jamiyat tomonidan kuzatuv kengashi a'zolariga (mustaqil a'zolar) va kotibiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqilganligi;

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolariga (mustaqil a'zolar) va kotibiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi va ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomlari loyihalari **jamiyat kuzatuv kengashi** majlisining 2024-yil 8-noyabrdagi 12-2024-son bayoni bilan ma'qullanganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

1. Jamiyat kuzatuv kengashining amaldagi tarkibi (*A.Kadixodjayev, T.Nabiyev, J.Nasirov, Sh.Axmedov, S.Tangriyev*) vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

2. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga quyidagilar 3 (uch) yil muddatga saylansin:

- | | |
|--|--|
| 1. Kadixodjayev
A'zam Alisherovich | - Tog'-kon sanoati va geologiya vazirining o'rinbosari |
| 2. Nabiyev
To'liqin Nabiyevich | - Davaktiv agentligi boshqarma boshlig'i |
| 3. Tangriyev
Sanjar Shamsikulovich | - Davaktiv agentligi boshqarma boshlig'i |
| 4. Nasirov Jon | - mustaqil a'zo |
| 5. Robert Manson | - mustaqil a'zo |

3. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolariga (mustaqil a'zolar) va kotibiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomi 1-ilovaga va ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosi ta'minlanishini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Ortikov